

LINGVOKULTUROLOGIYADA FRAZEOLOGIZMLARNING ROLI VA AHAMIYATI

(nemischa va o'zbekcha frazeologizmlar talqini asosida)

Gulshan Ergasheva

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti

universiteti tayanch doktoranti

gulshan_199191@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola lingvokulturologiya va frazeologiya fanlarining shakllanishi, rivojlanishi hamda o'zaro bog'liqligi asosida olib borilgan tahlilga bag'ishlangan. Nemis va o'zbek tillaridagi ijobiy ma'nodagi frazeologizmlar misolida madaniy tafakkur, tarjima strategiyalari, va tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida muhim nazariy va amaliy masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, lingvokulturologiya, tarjima, madaniy tafakkur, nemis tili, o'zbek tili, til va madaniyat, idiom, semantika.

Аннотация: Статья посвящена анализу становления, развития и взаимосвязи дисциплин лингвокультурологии и фразеологии. Важные теоретические и практические вопросы освещаются с учетом культурного мышления, стратегий перевода и научных взглядов лингвистов на примере фразеологизмов с положительным значением в немецком и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеология, лингвокультурология, перевод, культурное мышление, немецкий язык, узбекский язык, язык и культура, идиома, семантика.

So'nggi asrning 90-yillarida tilshunoslik sohasida yangi burilish lingvokulturologiya sohasi kirib keldi. Ushbu soha bevosita inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalalari bilan shug'ullanadigan antropologiya sohasi bilan chambarchas bog'liqdir. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazariyaning ildizi V. Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Ko'plab tadqiqotlarga ko'ra "lingvokulturologiya" atamasi

V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi vakillarining ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o‘zaro bog‘liqliklaridan paydo bo‘lgan fan bo‘lib, u xalq madaniyatining paydo bo‘lishini tilda ifodalanishi va mujassamlanishini tadqiq etadi. Bu ikki yo‘nalishni, ya’ni tilshunoslik va madaniyatshunoslik o‘zaro bog‘lanishi oddiy bog‘lanish emas, balki bu yangi ilmiy asoslangan yo‘nalishning vujudga kelishidir.

Lingvokulturologiyaning rivojlanishida juda ko‘p olimlar, tilshunoslar samarali mehnat qilib kelishmoqda. Tilshunos olimlardan V. Gumboldt, E.Benevist, L.Vaysberger, A.A. Potebnya, E.Sepir kabilar o‘zlarining dastlabki tadqiqotlarini taqdim etishdi. Keyinchalik V.N.Teliya Lingvokulturologiya sohasining rivoj topishida muhim ishlarni amalga oshirdi. Uning yozishicha, “Lingvokulturologiya insoniy, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir.” Ya’ni jonli kommunikativ jarayonlarni xalq mentaliteti bilan mujassamlashuvi fikrini ilgari suradi.

Tilshunoslikning eng muhim tarmoqlaridan yana biri bo‘lmish frazeologiya ham lingvokulturologiyada o‘rganilini kelinmoqda. Shu o‘rinda frazeologiya haqida biroz to‘xtalib o‘tamiz. Frazeologiya mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida XX asrda shakllana boshladi. V.V. Vinogradovning ishlarida frazeologizmlar tahlilining ilk nazariy asoslari qo‘yildi. U frazeologiyani til birliklari ichida alohida tur sifatida ko‘rib, ularni nutqdagi barqaror ifodalar, ko‘chma ma’nolar va xalq tafakkurining yuksak namunasi deb baholagan. Frazeologiyaning rivojlanishiga E.D. Polivanova, A.V. Kunin, A.I. Smirnitkiy, N.N. Amosova kabi olimlar katta hissa qo‘shgan. Jumladan, A.V. Kunin frazeologik birliklarni tarjima qilishdagi uslublar va madaniy tafovutlarni chuqur tahlil qilgan. Har bir millat tilida frazeologizmlar mavjud bo‘lib, ular ushbu tilning eng noyob so‘z boyligini oshiruvchi va tilni yanada ta’sirchan hamda jozibali qilib ko‘rsatuvchi omil desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu sohani rivoj topishida nemis tilshunos olimlaridan V.Flaysler, H.Gumboldt, Pilz kabi olimlar salmoqli hissa qo‘shgan. Ular nemis tilshunosligida frazeologiyaning klassifikatsiyasini, uning xususiyatlarini hamda ahamiyatini aniqlashga harakat qilgan.

Tilshunoslikning so‘nggi o‘n yilliklarida frazeologiya va lingvokulturologiya sohalari o‘zaro uzviy bog‘liq ravishda rivojlanib bormoqda. Frazeologiya tildagi barqaror birikmalarni o‘rgansa, lingvokulturologiya til orqali madaniyatni tahlil qiladi. Shu jihatdan frazeologizmlar — bu ikki sohaning kesishgan nuqtasida joylashgan eng muhim til birliklaridandir. Ular nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, tarjimashunoslik kabi yo‘nalishlar uchun ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Lingvokulturologiya fanining asosiy tamoyillari til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani aniqlash, til birliklarida xalq tafakkuri va qadriyatlarini ochib berishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda frazeologizmlar madaniy xotira, xalq tajribasi, milliy xarakter va ijtimoiy stereotiplar kabi ko‘plab ma’naviy-mafkuraviy qatlamlarni o‘zida mujassam etadi. Olimlar E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar frazeologizmlarni "xalqning madaniy tafakkuri va obrazlilikining intensiv shakli" deb ataydi. Ularning fikriga ko‘ra, har bir frazeologizm ortida xalqning butun boshli tarixiy tajribasi, axloqiy me‘yorlari, diniy dunyoqarashi va estetik ideallari yashiringan. Shu bois, frazeologik birliklarni o‘rganmasdan turib, biror xalq madaniyatini to‘liq anglash mumkin emas. Frazeologizmlarda milliy o‘ziga xoslik, ya’ni, etnik identitet, madaniyatga xos obrazlar va stereotiplar juda ravshan ifoda etiladi. Masalan, o‘zbek tilida **“Ko‘ngli daryo”** iborasi saxiylik, ochiqko‘ngillikni ifodalasa, nemis tilidagi unga yaqin ma’noli ibora **„ein großes Herz haben“** bo‘lib, lekin u yerda **“daryo”** kabi obraz yo‘q. Bu farq o‘zbek xalqining tabiat va hayot hodisalarini hissiy-obraziy tarzda tasvirlashga moyilligidan dalolat beradi. Shuningdek, madaniyatlarda ba’zi obrazlar ijobiy ma’no bersa, boshqalarida salbiy ifoda bo‘lishi mumkin.

Har bir xalq o‘zining tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, dunyoqarashi va mentaliteti orqali tilda o‘ziga xos frazeologizmlarni shakllantiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi **“baxt qushi qo‘ndi”** iborasi o‘ziga xos obraz orqali ijobiy hissiyot ifodasini beradi. Nemis tilida esa **“im siebten Himmel sein”** (**“yettinchi osmondasan”**) iborasi ayni ma’noga ega bo‘lib, chuqur emotsional kayfiyatni ifodalaydi. S.G. Ter-Minasova tilni **“milliy madaniyatni aks ettiruvchi madaniy kod”** deb ataydi. Shu bois, har bir frazeologik birlik xalqning ichki dunyosini, qadriyatlarini yoritadi. Bu birliklarni tahlil qilish orqali nafaqat lingvistik, balki madaniy qiyofani ham aniqlash mumkin bo‘ladi.

Quyida nemischa va o'zbek tilidagi bir qancha frazeologizmlarning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqamiz.

O'zbekcha frazeologizm	Nemischa ekvivalenti	Ma'nosi
Yuziga nur yugurdi	Es strahlte vor Freude	Quvonchdan yuzida nur paydo bo'ldi
Baxt qushi qo'ndi	Ein Glücksfall ist eingetreten	Kutilmagan baxtli voqea yuz berdi
Ko'ngli tog'dek	Er ist übergücklich	Juda quvondi
Boshi osmonga yetdi	Er schwebte im siebten Himmel	Cheksiz baxtiyorlik holatida bo'lish
Ko'ngli yorishdi	Ihm wurde warm ums Herz	Yaxshi kayfiyatga keldi

Lingvokulturologik tahlil shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar orqali nafaqat til, balki xalqning hissiyoti, axloqiy qarashlari, dunyoqarashi, e'tiqodi, tarixiy xotirasi ham tahlil qilinadi. Ular "kognitiv xarita" vazifasini bajarib, insoniyatning muayyan madaniyatga mansub a'zolari dunyoni qanday qabul qilishlarini ko'rsatadi. Lingvokulturologiyada frazeologik birliklar turlicha tasnif qilinadi. Ularning eng asosiy guruhlar haqida quyida so'z yuritamiz.

- **Milliy xos frazeologizmlar** – faqat bir xalq madaniyatiga xos bo'lgan birliklar (masalan, "To'yga borgan, to'n kiygan" – o'zbek tilida).
- **Umumiy madaniy frazeologizmlar** – turli tillarda o'xshash ifodaga ega bo'lgan birliklar (masalan, "Ko'zdan g'oyib, ko'ngildan ham" – nemischa: **Aus den Augen, aus dem Sinn**).

- **Universal frazeologik birliklar** – har bir tilda mavjud bo‘lgan, deyarli bir xil semantikaga ega obrazlar (masalan, “Yuragi orqaga tortdi” – **Das Herz rutschte in die Hose**).

Bu tasniflar frazeologizmlarni madaniy jihatdan chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Frazeologizmlarni lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganish quyidagi sohalarda katta ahamiyatga ega deb atasak ham bo‘ladi.

1. **Chet tilini o‘rgatish:** frazeologizmlar orqali talabalarga nafaqat til, balki madaniyat ham o‘rgatiladi.
2. **Tarjimashunoslik:** madaniyatlararo tafovutlarni anglash tarjimada muhim ahamiyat kasb etadi.
3. **Madaniyatlararo kommunikatsiya:** frazeologizmlar turli xalq vakillarining to‘g‘ri tushunishiga yordam beradi yoki noto‘g‘ri tushunishga sabab bo‘ladi.
4. **Badiiy tarjima va adabiyotshunoslik:** mualliflik uslubi, badiiy obrazlar, milliy kolorit asosan frazeologik qatlamda ifodalanadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “To‘n kiyish” iborasi ijtimoiy-huquqiy kontekstda ham ishlatiladi (ya'ni, javobgarlikni bo‘yniga olish), bu iboraning madaniy jihatlari va tarixiy ildizi tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi. Frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganishda bir necha asosiy metodlar mavjud. Shu jumladan **semantik-tarixiy, kontrastiv, kognitiv-lingvistik, korpus tahlil kabi metodlar yordamida** iboraning tarixiy kelib chiqishi va qadimiy semantik qatlamlarini ochib berish, ikki yoki undan ortiq tillardagi frazeologik birliklarning qiyosiy o‘rganilishi, iboraning aqliy modelini, metaforik asosini o‘rganish, frazeologizmlarning matnlardagi real ishlatilishini tahlil qilish kabi tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega. Bu metodlar frazeologik birliklarning til va madaniyatdagi o‘rnini kompleks ravishda ochib berishga imkon beradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, frazeologik birliklar lingvokulturologik tadqiqotlar uchun boy va sarmazmun materialdir. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari, milliy estetik ideallari va ijtimoiy tafakkuri o‘rganiladi. Har bir frazeologizm aslida tilshunoslikning chegarasidan chiqib, madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya va tarjimashunoslik bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, zamonaviy

lingvokulturologik tadqiqotlar frazeologik birliklarni faqat til vositasi emas, balki madaniyatning ogʻzaki va yozma koʻrinishlari sifatida tahlil qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Burger, H. (2010). Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag.
2. Fleischer, W. & Barz, I. (1992). Grammatik der deutschen Phraseologie. Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie.
3. Palm, C. (1995). Sprachbilder und Redensarten: Herkunft und Bedeutung deutscher Redewendungen. München: Dudenverlag.
4. Heringer, H.J. (2004). Interkulturelle Kommunikation. Grundlagen, Methoden, Praxis. Tübingen: Francke Verlag.
5. Röhrich, L. (1973). Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg: Herder Verlag.
6. Schwarz, B. (2005). Sprachliche Bilder im interkulturellen Vergleich: Eine Analyse deutscher und russischer Phraseologismen. München: Iudicium Verlag.
7. Верецагин, Е.М., Костомаров, В.Г. (2005). Язык и культура: Лингвострановедческий подход к изучению русского языка как иностранного. Москва: Русский язык.
8. Тер-Минасова, С.Г. (2008). Язык и межкультурная коммуникация. Москва: Слово.
9. Телия, В.Н. (1996). Фразеология как способ выражения национально-культурной специфики. Москва: Наука.
10. Мокиенко, В.М. (2001). Фразеологический словарь русского языка: значение, происхождение, употребление. Санкт-Петербург: Союз.
11. Кунин, А.В. (1986). Курс фразеологии современного английского языка. Москва: Высшая школа.

12. Ergasheva G. Nemis tili frazeologiyasida “frazeologizm” va “frazema” tushunchalari tahlili. O‘zMU XABARLARI. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. 2025/1. 118-120 b.

13. Эргашева Г. С. (2024). Nemischa frazeologizmlarning struktur-semantik tahlili (inson intellektual salohiyatini ifodalovchi iboralar misolida) Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Actual Problems of Humanities and Social Sciences Volume 4 | Issue 10 | 2024 ISSN Online: 2181-1342. 170-174 b.